

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
FARMONI

**NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI HAMDA AHOLINING IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ QATLAMLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA**

Nogironligi bo'lgan shaxslar, ayniqsa, doimiy parvarishga muhtoj bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ijtimoiy yordamning zamonaviy mexanizmlarini amalga oshirishda yangi yondashuvlarni joriy etish maqsadida:

1. 2022-yil 1-apreldan boshlab mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nogironlik nafaqasi hamda ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi nogironlik pensiyasining eng kam miqdori qo'shimcha to'lovni hisobga olgan holda — 440 000 so'mdan 622 000 so'mgacha oshirilsin.

2. Belgilansinki, 2022-yil 1-apreldan boshlab:

a) o'zgarar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalarning (keyingi o'rinlarda — o'zgarar parvarishiga muhtoj bolalar) parvarishi bilan band bo'lgan bolaning qonuniy vakiliga har oyda 500 000 so'm miqdorida nafaqa to'lovi (keyingi o'rinlarda — parvarishlash nafaqasi) joriy etiladi.

Bunda, parvarishlash nafaqasini to'lash va yetkazib berish xarajatlari O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi;

b) parvarishlash nafaqasi fuqarolarning Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga qilgan murojaatlari asosida budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan tayinlanadi va to'lanadi.

3. Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi (A.K. Inakov) Sog'liqni saqlash vazirligi (B.A. Musayev) bilan birgalikda quyidagi ma'lumotlarni budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga elektron shaklda taqdim etib borishni ta'minlasin:

2022-yil 1-apreldan boshlab o'zgarar parvarishiga muhtoj bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni;

2022-yil 1-oktabrdan boshlab o'zgarar parvarishiga muhtoj bolalarning qonuniy vakillari to'g'risidagi ma'lumotlarni.

4. Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi (A.K. Inakov), Sog'liqni saqlash vazirligi (B.A. Musayev) bilan birgalikda 2022-yilning oktyabr oyidan boshlab 18 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolalar va odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallikka chalingan 18 yoshgacha bolalarga to'lanadigan nafaqalarni hamda parvarishlash nafaqasini fuqarolardan qo'shimcha hujjatlarni talab etmagan holda "proaktiv shakl"da tayinlash tizimini joriy etsin.

5. Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov):

ushbu Farmonda belgilangan chora-tadbirlar bilan bog'liq xarajatlar budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining qo'shimcha daromadlari hamda jamg'armaga respublika budjetidan ajratilishi ko'zda tutilgan transfertlar hisobidan moliyalashtirilishini ta'minlasin;

kelgusi yillarda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti parametrlarida mazkur Farmonning amalga oshirilishi bilan bog'liq xarajatlarni nazarda tutsin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

6. Moliya vazirligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ushbu Farmonning maqsadi, vazifalari va bundan kutilayotgan natijalarni ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish ishlarini tashkil qilsin.

7. O'zgaralar parvarishiga muhtoj bo'lgan 18 yoshgacha bolalarning kasalliklari ro'yxati [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

8. Ushbu Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib moliya vaziri T.A. Ishmetov va Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi direktori A.K. Inakov belgilansin.

9. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari J.A. Qo'chqorov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2022-yil 17-fevral,  
PF-74-son

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2022-yil 17-fevraldagi  
PF-74-son Farmoniga  
ILOVA

### **O'zgaralar parvarishiga muhtoj bo'lgan 18 yoshgacha bolalarning kasalliklari ro'yxati**

1. Bosh va orqa miya jarohatlari hamda tug'uruq jarohatlari oqibatida bosh va orqa miya qon aylanishining og'ir buzilishlari, periventrikulyar leykomalatsiya, markaziy asab tizimining virusli infeksiyalari natijasida chuqur harakatlar buzilishi bilan asoratlangan holatlar.

2. Jarrohlik amaliyotidan keyingi holatlar: ichki a'zolar, suyak-mushak tizimi, miya qutisi, quloq-tomoq-burun a'zolari va suyak-mushak tizimining tug'ma anomaliyasi (rivojlanish nuqsonlari va deformatsiyalarning og'ir shakllari) bilan tug'ilgan chaqaloqlarda uzoq nazoratni va korreksiyaning talab qiladigan holatlar.

3. Biriktiruvchi to'qimaning tizimli shikastlanishi: tizimli qizil yugurik, dermatopolimiozit, tizimli boshlanuvchi yuvenil artriti, yuvenil revmatoid artriti va tugunchali periarteritning og'ir turlari.

4. Serebral falaj va boshqa falajli sindromlar (istisno: G81.0-G81.9-gemiplegiya, G83.1-oyoqlar monoplegiyasi va G83.2-qo'l monoplegiyasi).

5. Bolalar tserebral falaji, periventrikulyar leykomalatsiya. (Istisno: G80.2-bolalar gemiplegiyasi).

6. Tez-tez qaytalanuvchi epilepsiyaning shaxs o'zgarishi va aql pastligi bilan kechishi.

7. Kelib chiqishi har xil bo'lgan aqliy zaiflikning chuqur va og'ir turi. Autizm.

8. Surunkali og'ir shizofreniya va boshqa ruhiy buzilishlar, xulq-atvor buzilishlari.

9. Poliomyelit kasalligining og'ir asoratlari.

10. O'tkir bo'shashgan shol.

11. Tug'ma gidrotsefaliya (kuchli miya qutisi gipertenziyasi, tez-tez takrorlanuvchi talvasa xurujlari, ko'z tubidagi asoratlari, parezlar, plegiyalar, aqliy, nutqiy, motor rivojlanishida orqada qolishlar).

12. Ko'rish o'tkirligining yaxshi ko'radigan ko'zda 0 — 0,03 ga (korreksiya bilan) pasayishi.

13. Tug'ma va orttirilgan tUSDagi surunkali bronx-o'pka kasalliklarida II-III darajali turg'un nafas yetishmovchiligi. Astmaning gormonga bog'liq asoratli turi.

14. Tez-tez qaytalanuvchi oqma yaralar va funksional buzilishlar bilan kechadigan suyak va boshqa tayanch tizimi sili, silga qarshi dori vositalariga turg'unligi bo'lgan, davolanish natija bermagan va palliativ davoga muhtoj bo'lgan sil kasalliklari; bosh miya faoliyatining keskin buzilishi bilan kechadigan sil meningoensefaliti, jarrohlik yo'li bilan davolanishga hayotiy qarshi ko'rsatmalari bo'lgan, keskin funksional buzilishlar bilan kechadigan bosh va orqa miya tuberkulemalari.

15. Jigarning tug'ma, irsiy, orttirilgan kasalliklarida kuchli turg'un qayta tiklanmaydigan funksional buzilishlar.

16. Surunkali buyrak yetishmovchiligining III bosqichi.

17. Inkurabel yomon sifatli o'smalarning og'ir shakli.